



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

BADIIYAT ORQALI REALIZMNI OCHIB BERGAN KLASSIK ADABIYOTLAR VA ULARNING ABSURDIZMGA QARSHILIGI

(Jane Austenning "Andisha va g'urur" asari asosida)

Abdurashidova Mohiniso Baxtiyorjon qizi,
Talaba, mohinisoabdurashidova@gmail.com
Guliston Davlat Universiteti

Safarova Umida To'lqin qizi,
Talaba, usafarova91@gmail.com
Guliston Davlat Universiteti

Abduxalilova Nodira Akbar qizi,
Talaba, akbarovnaan@gmail.com
Guliston Davlat Universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183356>

Annotatsiya. Ushbu maqolada reallikni o'zida birlashtirgan hamda o'sha davrga oid ijtimoiy qatlamdagi ayol-qizlar taqdiriga absurd nigoh bilan qarashganligini bayoni tadqiq qilingan holda yoritilgan. Maqola mavzusini ta'siri doirasini kengaytirish maqsadida Jane Austenning "Andisha va g'urur" romanidan manbaa sifatida foydalanilgan. Qo'shimcha mavzu sifatida jahon bestsellerlarining tarjimashunoslikdagi muammosiga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. Roman, realism, absurdism, tabaqalanish, huquqsizlik, ijtimoiy hayot, tarjimashunoslik, kitobxon, savodsizlik.

Abstract. This article analyzes the interconnection between reality and absurdity, exploring how the fate of women in a specific historical social stratum was perceived. Jane Austen's *Pride and Prejudice* is used as a primary source to examine the social status of women and issues of gender equality in that era.

Additionally, the article addresses the challenges of translating global bestsellers, highlighting the potential loss of meaning and stylistic nuances during the translation process. The study focuses on the literary and linguistic aspects of these issues, providing a scholarly analysis of modern translation principles and their impact on the essence of literary works.

Keywords. Novel, absurdism, realism, caste, injustice, social life, translation studies, bookworm, illiteracy.

Kirish. Jeyn Ostenning XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida yozilgan "Andisha va g'urur" (*Pride and Prejudice*) romani Angliya ijtimoiy hayotini aks ettirish bilan bir qatorda, dunyo adabiyotining klassik asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu roman, o'zining zamonasi uchun juda dolzarb, sinfiy tafovutlar va axloqiy masalalar bilan birga, insonlarning o'zaro munosabatlari, xususan, ayol va erkaklar o'rtasidagi muloqotlarni chuqur tahlil qiladi. Roman syujeti oddiy va mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan bo'lsa-da, uning ichki murakkabligi qahramonlarning ruhiy olamidagi o'zgarishlar orqali namoyon bo'ladi. "Andisha va g'urur" romanining



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ingliz tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalarida ayol obrazining lingvistik tahlili amalga oshiriladi. Bunda, ingliz va o'zbek tillaridagi tarjimalarda ayol obrazining ifodalanishidagi lingvistik xususiyatlar, madaniy tafovutlar va tarjima jarayonida yuzaga keladigan o'zgarishlar ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism. “Andisha va g'urur” asari badiiyat orqali realizmni ochib bergan adabiyotlardan biri hisoblanadi. Romandagi ijtimoiy qatlamlar, nikoh masalalari va ayollarning imkoniyatlari Ostinning o'z hayot tajribasiga asoslangan. 19-asr Angliyasida ayollar uchun eng yaxshi kelajak – yaxshi turmush qurish edi, chunki ular moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lish imkoniyatiga ega emasdilar. Asardagi Bennetlar oilasi ham aynan shunday muammoga duch kelgan – agar qizlar yaxshi umr yo'ldosh topmasa, ular moddiy qiyinchiliklarga uchraydi. Bunga misol tariqasida Lidiya Bannet hayoti va qabul qilgan qarorlarini keltirib o'tishimiz mumkin. O'zining baxtli va moddiy qiyinchiliklarsiz yashashi uchun ota-onasi va opalari obrosiga putur yetkazgan holda 16 yoshida zobit Jorj Uikxem bilan qochib ketishini ko'rsata olamiz. Holbuki, Uikxem Lidiyaning opasi bo'lmish Elizabetga og'iz slogan bo'ladi. Bunga qaramasdan singlisining qilmishi o'ziga eng to'g'ri qarordek tuyuladi.

Barchamizga birdek ma'lumki, **absurd** so'zi mantiqsizlikni anglatadi; reallikda sodir bo'ladigan hamma voqealarda allaqanday uzviylik, mantiqan bir-birini taqazo etish bor, shu bois go'yo hamma savollarga javob bo'lishi zarurdek odamzod yashashdan mantiq izlab charchamaydi. **Absurd** esa tanganing boshqa tarafi hisoblanadi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida esa xotin-qizlar ta'limi va ularning madaniy va dunyoviy qarashlariga absurd qarashgan. Asosiy masala ularning badavlat inson bilan turmush qurishi va merosga egalik qilishi bo'lgan. Missis Bannet esa buning yaqqol misoli bo'la oladi. Xonimning xulq-atvori, o'zini tuta olmasligi ko'p hollarda muammo paydo qilardi. Elizabet va Jeyn bu holatdan ko'p bora katta davralarda hijolatli bo'lib qolishgan.

Patriarxal tizim va mulk huquqi

Asar davri (19-asr boshlari) Britaniyasida ayollar mulk egalik qilish huquqidan deyarli mahrum bo'lgan. Bennet oilasining muammosi ham shundan kelib chiqadi: agar janob Bennet vafot etsa, oilaning butun mulki uzoq qarindosh (janob Kollinz)ga o'tadi. Bu holatni bartaraf etish maqsadida oilaning o'rtancha farzandi bo'lmish Elizabetga majburiy holda Mister Kollinzga turmushga chiqish majburiyati yuklatiladi. Britaniyadagi ushbu tengsizlik natijasida qizlar o'z his tuyg'ularidan voz kechishiga olib keladi. Bu holat Britaniya siyosiy tizimida ayollar huquqlarining cheklanganligini va gender tengsizligini aks ettiradi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Kitobdagi asosiy mavzulardan yana biri bu-**tabaqalanish** hisoblanadi. 19-asr Angliyasida ijtimoiy tabaqalanish juda keskin edi va jamiyat aniq uchta asosiy sinfga bo'lingan: yuqori sinf, o'rta sinf va ishchi sinf. Ushbu tabaqalanish iqtisodiy imkoniyatlar, ta'lim, siyosiy huquqlar va kundalik hayot tarzida katta farqlarni keltirib chiqargan.

Yuqori sinf (Aristokratiya va zodagonlar)

O'rta sinf (Burjuaziya)

Ishchi sinf (Fabrika ishchilari va qishloq mehnatkorlari)

19-asr Angliyasi qat'iy tabaqalanish tizimiga asoslangan edi. Yuqori sinf siyosiy va iqtisodiy qudratga ega bo'lib, aristokratiyaning hukmronligi saqlanib qolgan. O'rta sinf o'sib, sanoat va savdo tufayli kuchaygan bo'lsa, ishchi sinf og'ir hayot sharoitida yashagan va deyarli huquqsiz bo'lgan. Kitobda esa bu holat o'z isbotini topgan. Asar qahramonlaridan biri Aristokrat qatlamiga mansub Miss Caroline o'zi va oilasi yuqori qatlam vakillari bo'lgani uchun akasi Mister Bingli o'zlaridan past tabaqa vakilasiga uylanishini qoralaydi va bunga qarshilik qiladi. Misol keltirishda uzoqlashmaymiz, asar bosh qahramonlaridan biri Mister Darsi kambag'al oila qizini sevib qolgan bo'lishiga qaramay, bu hodisa oilasi nomiga yaxshi bo'lmasligini o'ylab qizga tuyg'ularini oshkor etmaydi. Bu hodisalarning asosiy sababi shundaki, yuqori sinf va ishchi qatlam o'rtasidagi turmush aristokratlar uchun sha'niga putur yetish degan ma'noni anglatar edi. Quyida esa asosiy argumentni keltirib o'tamiz.

Ijtimoiy tabaqalanish va aristokratiya

Asar Angliyaning qat'iy tabaqaviy tuzilishini aks ettiradi. Janob Darsi kabi yirik mulkdorlar quyi tabaqadagi insonlarga yuqoridan qaraydi. Xususan, Ledi Ketrin de Burg o'zining ijtimoiy mavqeidan foydalanib, boshqalarga buyruq berishga harakat qiladi. Bu holat Angliya jamiyatining siyosiy tuzilishi – ya'ni aristokratiya va burjuaziya o'rtasidagi tafovutlarni ko'rsatadi. Bu esa ochiqchasiga omma orasidagi ziddiyatga sabab bo'ladi. Kitob esa bir qarashda ko'zga ko'rinmaydigan ushbu xavfni badiiy uslubda o'zida aks ettirgan.

Darsi va Lidiya masalasi – siyosiy qutqaruv ramzi yoxud zaif qatlam ustidan olib borilgan boshqaruv tizimi.

Asarda janob Darsi Lidiya va Uikam o'rtasidagi mojaroni hal qilish uchun moliyaviy yordam ko'rsatadi. Bu Britaniya aristokratiyasining o'z qudratini saqlab qolish va quyi tabaqani nazorat qilish usuliga o'xshab ketadi. Bu, ma'lum ma'noda, hukumatning zaif tabaqalarni boshqarish siyosatini eslatadi. Hech kimga sir emaski boylikka o'chlik va shoshqaloqlik natijasida 16 yoshli Lidiya Mister Uikxemga



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

turmushga chiqadi. Bu esa burjuaziya va isgchi qatlam o'rtasidagi dahanaki jangga sabab bo'ladi. Mister Darsining moliyaviy yordami esa bu muammoni bartaraf etadi.

Tahlil

Asar bevosita siyosiy muammolarni muhokama qilmasa-da, uning har bir sahnasida Angliyaning ijtimoiy-siyosiy muhitiga ishora bor. Ayollarning huquqsizligi, aristokratiya va burjuaziya o'rtasidagi kelishmovchiliklar, boylik va qudratga intilish – bularning barchasi Ostin tomonidan nozik, ammo keskin tarzda tanqid qilingan.

Jeyn Ostin bu asari orqali 19-asr Angliya siyosiy va ijtimoiy tizimini bevosita tanqid qilmasa-da, o'quvchini jamiyatdagi adolatsizlik va gender tengsizligi haqida o'ylashga undaydi. Shunday qilib, "Andisha va g'urur" faqat sevgi hikoyasi emas, balki o'sha davrning siyosiy va ijtimoiy masalalarini ham aks ettiruvchi asardir.

Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice" asari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan va bu jarayonda turli muammolar yuzaga kelgan. Ushbu tarjima muammolarini bir necha asosiy jihatdan tahlil qilib ko'ramiz:

1. Nomining tarjimasi

Asarning asl nomi "Pride and Prejudice", lekin turli tillarga har xil tarjima qilingan. O'zbek va rus tillarida odatda "G'urur va xurofot" yoki "Mag'rurlik va adovat" deb tarjima qilingan. Lekin "Prejudice" so'zi aslida "xurofot" yoki "adovat" bilan to'liq mos kelmaydi. U "oldindan shakllangan noto'g'ri fikr", "biryozlama qarash" ma'nolarini anglatadi. Shu sababli, tarjimada ma'lum darajada semantik og'ish mavjud.

Tahlil:

"G'urur va xurofot" – mazmun jihatdan asarga yaqin, lekin "Prejudice" so'zining ma'nosini to'liq ochib bermaydi.

"Mag'rurlik va adovat" – bu ham mazmun jihatdan yaqin, lekin "Prejudice"ni "adovat" deb tarjima qilish noto'g'ri.

Bu muammo ko'plab tillarda uchragan, masalan:

Fransuz tilida: "Orgueil et Préjugés" (Mag'rurlik va oldindan shakllangan noto'g'ri fikr)

Ispan tilida: "Orgullo y Prejuicio" (deyarli to'g'ri tarjima)

Rus tilida: "Гордость и предубеждение" (to'g'ri variant)

Bu tarjimalar orasida ruscha "predubejdenie" so'zi asl matnga yaqinroq. O'zbek tarjimalari esa asarning mohiyatini to'liq aks ettira olmagan. Bunga sabab esa tarjimonlar odamlarni kitobxonlikka jalb qilish uchun asarga o'zlari tomonidan gaplar qo'shiladi va ba'zan qaysidir voqealikni olib tashlaydi. Bu esa asarning nafaqat mazmuniga balki uning jimjimadorligiga ham ta'sir o'tkazadi. Bunga misol qilib Erix



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Maria Remarkning "Jannatdagi soyalar" kitobini rus tilidagi ("Тени в парю) variant bilan taqqoslagan holda isbotlashimiz mumkin. Rober va Natashaning suhbatlari, siyosiy masalar va ularning yaqinligi o'zbek tilidagi tarjimasida mavjud emas. Bu mas'ulyatsiz ish natijasida kitobning ba'zi voqealari o'z ma'nosini yo'qotgan va ko'pchilik kitobxonlarga tushunishda muammo tug'dirgan.

2. Lingvistik va madaniy o'ziga xosliklarni tarjima qilish muammosi

Jeyn Ostinning uslubi o'ziga xos bo'lib, u ironiya, o'tkir ijtimoiy tanqid va murakkab jumlar bilan ajralib turadi. Bu jihatlar ba'zi tarjimalarda yo'qolgan yoki soddalashtirilgan.

Misol uchun, Ostinning ijtimoiy tanqid va hajv elementlari:

"She is tolerable; but not handsome enough to tempt me."

("U chidasa bo'ladi, lekin meni o'ziga tortish uchun yetarlicha chiroyli emas.")

Ba'zi tarjimalarda bu jumla shunchaki "U menga yoqmaydi" shaklida berilgan, bu esa Darsining istehzosini to'liq aks ettira olmaydi.

Tahlil:

Inglizcha matnda satirik ohang bor, lekin tarjimalarda bu ba'zan yo'qoladi.

Ayrim rus va o'zbek tarjimalarida jumlar haddan tashqari soddalashtirilgan, bu esa Ostinning o'ziga xos uslubini yo'qotadi.

3. Tarjima qilinayotgan davrning ta'siri

Har bir tarjima qilingan davrning ijtimoiy va madaniy konteksti tarjimaga ta'sir qilgan.

Sovet davridagi ruscha tarjimalar – Bu tarjimalarda siyosiy va ijtimoiy jihatlar yumshatilgan. Masalan, ijtimoiy tabaqalanish bo'yicha tanqidiy fikrlar yumshoqroq ifodalangan yoki ba'zan tushirib qoldirilgan.

Zamonaviy tarjimalar – Yangi tarjimalarda asarning ohangini to'g'ri saqlashga harakat qilingan, lekin ba'zan juda murakkab yoki eskirgan so'zlar ishlatilgan, bu esa asarni tushunishni qiyinlashtirgan.

Tahlil:

Har bir davr o'z ideologiyasiga mos tarjima qilgan.

Tarjimalar asarning mohiyatini buzmasligi uchun tarjimonning uslubi juda muhim.

"Pride and Prejudice" tarjima jarayonida turli muammolarga duch kelgan:

Nomining tarjimasini to'liq aniqlik bermaydi – "G'urur va xurofot" varianti asl matnga unchalik mos kelmaydi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ironiya va satira ba'zan yo'qolib ketadi – ayniqsa, soddalashtirilgan tarjimalarda.

Tarjima qilinayotgan davrning siyosiy va madaniy konteksti tarjima uslubiga ta'sir qilgan.

Bu muammolar yaxshi tarjima qilish uchun nafaqat tilni, balki madaniy kontekstni ham chuqur tushunish kerakligini ko'rsatadi. Shu sababli, bu asarni o'qiyotganda asl matn bilan solishtirib ko'rish foydali bo'lishi mumkin.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, bu kitob faqatgina romantik ruhda yozilgan asar bo'libgina qolmay, balki XIX asr Britaniyadagi ijtimoiy tizim haqida 479 sahifa ichida kitobxonga so'zlab bera olgan badiiy realistik asar hisoblanadi. Asar o'z ichiga bevosita jamiyatdagi ko'zga ko'rinmas xavflarni yoritib bera olgan. Bularga misol tariqasida aholi o'rtasidagi tabaqalanish, ayol huquqlari poymol etilishi, aristokratiyaning zaif qatlam vakillari ustidan olib borgan boshqaruv tizimini keltirib o'tishimiz mumkin. Yozuvchining asarda o'sha davr muammolarini kitobxonga aniq yetkazib berish mahoratiga esa tan bermay ilojimiz yo'q. Asarda mavjud bo'lgan tarjimashunoslikdagi muammolar esa kitob mazmun mohiyatiga bevosita ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Absurd drammasi" Yangi asr avlodi 2025-yil Toshkent
2. "Andisha va g'urur" Jane Austen Asaxiy nashriyoti 2017-yil Toshkent
3. "Jannatdagi soyalar" Erix Maria Remark Yangi asr avlodi nashriyoti 2022-yil Toshkent.
4. "Ilmiy va badiiy tarjima muammolari" I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov Tafakkur Bo'stoni 2012-yil Toshkent